



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRINING BUYRUG'I

2024_yil 25-dekabr

№ 401

Toshkent sh.

Davolash-profilaktika muassasalari uchun milliy klinik protokol va davolash standartlarini tasdiqlash hamda amaliyotga joriy etish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2024-yil 5-fevralda kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishining 9-son bayoni ijrosini ta'minlash hamda 300 ta klinik protokol va standartlarni xalqaro mezonlarga moslashtirish maqsadida, **buyuraman:**

1. Sog'liqni saqlash vazirligining 2024-yil 29-apreldagi 107-son buyrug'iga muvofiq 30 ta tibbiyot (klinik) yo'nalishi bo'yicha 60 ta klinik protokol, 2024-yil 14-iyundagi 195-son buyrug'iga muvofiq 11 ta nozologiya bo'yicha klinik protokol va davolash standartlari hamda 2024-yil 9-sentabrdagi 290-son buyrug'iga muvofiq 38 ta tibbiyot (klinik) yo'nalishi bo'yicha 60 ta klinik protokol va davolash standartlari tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. 41 ta tibbiyot (klinik) yo'nalishi bo'yicha davolash-profilaktika muassasalari uchun milliy klinik protokol va davolash standartlari ro'yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tibbiy yordamni tashkillashtirish departamenti (U.Gaziyeva), Onalik va bolalikni muhofaza qilish boshqarmasi (F.Fozilova), Tibbiy sug'urta boshqarmasi (Sh.Almardanov), Klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish va joriy etish bo'limi (Sh.Nurimova), Xususiy tibbiyot va JST masalalari bo'limi (Sh.Gulyamov), Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari bilan birgalikda:

mazkur buyruq bilan tasdiqlangan milliy klinik protokol va davolash standartlarini barcha davlat va nodavlat tibbiyot tashkilotlariga yetkazilishini ta'minlasin;

2025-yil 3-martdan boshlab mazkur buyruq bilan tasdiqlangan milliy klinik protokol va davolash standartlarini davolash profilaktika muassasalarining amaliyotiga joriy qilsin, bunda:

milliy klinik protokol va davolash standartlaridan tashxislash va davolash jarayonida to'liq foydalanishni yo'lga qo'yish maqsadida joylarda baholash va monitoring o'tkazish orqali amaliy yordam ko'rsatish ishlari amalga oshirilsin;

milliy klinik protokol va davolash standartlarini amaliyotga joriy etishda milliy klinik protokol va davolash standartlarini qayta o'rganish orqali takomillashtirib borish choralari ko'rsin.

4. Klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish va joriy etish bo'limi (Sh.Nurimova), Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari rahbarlari bilan birgalikda:

yil yakuniga qadar 2025-yil davomida milliy klinik protokol va davolash standartlarini qayta ko'rib chiqish va tasdiqlash reja-grafikini ishlab chiqsin.

5. Qoraqalpog'iston Respublikasi sog'liqni saqlash vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar sog'liqni saqlash boshqarmalari boshliqlari mazkur buyruq bilan tasdiqlangan milliy klinik protokol va davolash standartlarini davlat va nodavlat davolash profilaktika muassasalarida amaliyotga joriy etilishini ta'minlasin.

6. Fan-ta'lim va innovatsiyalar boshqarmasi (O'.Ismailov) Respublika tibbiyot oliy ta'lim muassasalari rektorlari bilan birgalikda mazkur buyruq bilan tasdiqlangan milliy klinik protokol va davolash standartlari 2025/2026 o'quv yilidan boshlab Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi tibbiyot oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat, magistratura, klinik ordinatura bosqichlari, shuningdek, shifokorlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha o'quv dasturlariga kiritilgan holda ta'lim jarayonini tashkil qilinishini ta'minlasin.

7. Nazorat inspeksiyasi (A.Alijonov) rejali va rejadan tashqari tekshirishlarida mazkur buyruq bilan tasdiqlangan milliy klinik protokol va davolash standartlarining tibbiyot amaliyotiga joriy etilishi va ularga rioya qilinishi ustidan nazorat o'rnatish vazifasi yuklatilsin.

8. Raqamli texnologiyalarini joriy etish va muvofiqlashtirish boshqarmasi (N.Eshnazarov) mazkur buyruq bilan tasdiqlangan milliy klinik protokol va davolash standartlarini vazirlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirsin.

9. Matbuot xizmati (bo'limi) (F.Sanayev) mazkur buyruq bilan tasdiqlangan milliy klinik protokol va davolash standartlarining mazmun mohiyatini yoritish bo'yicha tashviqot va targ'ibot ishlari o'tkazilishini ta'minlasin.

10. Mazkur buyruq qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirining 2021-yil 30-noyabrdagi "Davolash-profilaktika muassasalari uchun klinik bayonnomalar hamda kasalliklarni tashxislash va davolash standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 273-son buyrug'ining ilovalaridagi tegishli nozologiyalar bo'yicha klinik protokollar va standartlari o'z kuchini yoqotgan deb hisoblansin.

11. Mazkur buyruq ijrosining nazorati vazir o'rinbosari F.Sharipov zimmasiga yuklansin.

Vazir



A. Xudayarov

Sog'liqni saqlash vazirining
2024-yil "25 12" dagi
401 - son buyrug'iga
ilova

**41 ta tibbiyot yo'nalishining 120 ta nozologiyalari bo'yicha davolash-profilaktika
muassasalari uchun milliy klinik protokol va davolash standartlari
RO'YXATI**

T/r	Tibbiy yo'nalish nomi	Mas'ul tashkilot nomi va rahbari	Milliy klinik protokol nozologiyasi nomi
1	Otolaringologiya (1)	Respublika ixtisoslashtirilgan otorinolaringologiya va bosh-bo'yin kasalliklari ilmiy-amaliy tibbiyot markazi U.S.Xasanov	Tashqi otitlar bo'yicha milliy klinik protokol
2	Bolalar otorinolaringologiyasi (2)	Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi A.A.Abdukayumov	Surunkali seroz o'rta otit bo'yicha milliy klinik protokol Burun to'sig'i deformatsiyasi bo'yicha milliy klinik protokol
3	Gerontologiya (1)	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi X.A.Akilov	Keksa va qari yoshdagi bemorlarda yiqilishlarga moilliklar bo'yicha milliy klinik protokol
4	Neyroxirurgiya (2)	Respublika ixtisoslashtirilgan neyroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi G.M. Kariev	Gidrocefaliya bo'yicha milliy klinik protokol Ensefalotsele kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
5	OIV/OITS (2)	Respublika OITSGa qarshi kurashish markazi B.N.Igamberdiyev	Boshqa mikroorganizmlar (kriptokokkli infeksiya) bilan kechadigan OIV kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol Belbog'simon herpes bilan kechadigan OIV kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
6	Bolalar va o'smirlar OIV/OITS (1)	Respublika OITSGa qarshi kurashish markazi B.N.Igamberdiyev	OIV bilan yashovchi bolalarda belbog'simon herpes kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
7	Travmatologiya va ortopediya (6)		Ekzostoz kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol

		Respublika ixtisoslashtirilgan Travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi M.Irismetov	Tizza bo'g'imining yon bog'lamlarining shikastlanishi nozologiyasi bo'yicha milliy klinik protokol
			Sinovit nozologiyasi bo'yicha milliy klinik protokol
			Ichki qurilmalar, implantlar va suyak transplantatlari bilan bog'liq mexanik asoratlari bo'yicha milliy klinik protokol
			Oyoq panjasi ortirilgan deformatsiyalari bo'yicha milliy klinik protokol
			Oyoq barmoqlari ortirilgan deformatsiyalari bo'yicha milliy klinik protokol
8	Bolalar travmatologiyasi va ortopediyasi (3)	Respublika bolalar ortopediya markazi Tilyakov Akbar Burievich	Tug'ma maymoqlik kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
			Yelka nervi chigali akusherlik falaji kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
			O'tkazilgan osteomiyelitdan keying son patologik chiqishi bo'yicha milliy klinik protokol
9	Endokrinologiya (3)	Akademik Y.X. To'raqulov nomidagi respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy amaliy tibbiyot markazi v.b.S.Farahutdinova	Diabetik nefropatya kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
			Kushing sindromi kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
			Diabetik to'piq kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol

10	Bolalar endokrinologiyasi (2)	Akademik Y.X. To‘raqulov nomidagi respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy amaliy tibbiyot markazi v.b.S.Farahutdinova	Bolalarda qandli diabet I-tip kasalligi bo‘yicha milliy klinik protokol
			Semizlik kasalligi bo‘yicha milliy klinik protokol
11	Shoshilinch va tez tibbiy yordam (2)	Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi D.A.Alimov	Bosh miya lat yeyishi kasalligi bo‘yicha milliy klinik protokol
			O‘tkir xoletsistit kasalligi bo‘yicha milliy klinik protokol
12	Allergologiya (2)	Respublika ixtisoslashtirilgan allergologiya va klinik immunologiya ilmiy amaliy tibbiyot markazi. I.S.Razikova	Atopik dermatit kasalligi bo‘yicha milliy klinik protokol
			Layella (Stivens – Djonson) sindromi kasalligi bo‘yicha milliy klinik protokol
13	Gematologiya (5)	Respublika ixtisoslashtirilgan gematologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori M.S.Islamov	Autoimmun gemolitik anemiya kasalligi bo‘yicha milliy klinik protokol
			«B -talassemiya» nozologiyasi bo‘yicha milliy klinik protokollar
			Miyelodisplastik sindrom kasalligi bo‘yicha milliy klinik protokol
			Villebrand kasalligi kasalligi bo‘yicha milliy klinik protokol
			Haqiqiy politsitemiya kasalligi bo‘yicha milliy klinik protokol

14	Bolalar gematologiyasi (2)	Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazi Polatova D.SH.	Immun trombositopenik purpura kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
			Glansman kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
15	Onkologiya (5)	Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy – amaliy tibbiyot markazi M.N.Tillyashayxov	Bachadon bo'yni saratoni kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
			Tuxumdonlar saratoni kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
			Me'da saratoni kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
			Prostata bezi saratoni kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
			Buyrak hujayraviy o'smasi kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
16	Bolalar onkogematologiyasi (3)	Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazi Polatova D.SH.	O'tkir limfoblast leykoz retsidivi kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
			O'tkir promiyelotsitar leykoz kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
			Gistiotsitoz (gemofagotsitar va Langergans hujayralaridan kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
17	Bolalar onkologiyasi (3)	Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazi Polatova D.SH.	Noxojikin kasalligi
			Jigar xavfli o'smasi (gepatoblastoma) kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol

			Osteosarkoma kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
18	Pediatriya (5)	Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi A.A.Abdukayumov	Qaytalanuvchi surunkali bronxit kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
			Bronxoektaz bilan og'rigan bolalarni tashxislash va olib borish taktikasi bo'yicha milliy klinik protokol
			Bolalarda bronxlar-o'pka displaziyasi kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
			Bolalarda allergik enterokolit kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
			Tug'ma zotiljam kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
19	Urologiya (5)	Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori SH.T. Muxtarov	Asoratlanmagan SCHYI. O'tkir sistit kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
			Homiladorlarda SCHYI kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
			Noneyrogen PSY simptomlari va prostata bezinig xavfsiz o'smasi kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
			Piyelonefrit kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
			Priaprizm kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
20	Bolalar urologiyasi (2)	Bolalar milliy tibbiyot markazi B.Y.Umarov	Siydik qopi ekstrofiyasi kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
			Qovuq siydik nayi reflyuksi kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol

21	Anesteziologiya va reanimatologiya (2)	Toshkent tibbiyot akademiyasi i.o Baymurodov SH.A Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi X.A.Akilov	Komalar: uremik, diabetik, jigar komasi. Intensiv terapiya nozologiyasi bo'yicha milliy klinik protokol
			Bosh miya og'ir jarohatlari, miya komasi bo'yicha milliy klinik protokol
22	Bolalar anestiziologiyasi va reanimatologiyasi (3)	Bolalar milliy tibbiyot markazi B.Y.Umarov	Bolalarda dehidratatsiya. Infuzion terapiya buyicha milliy klinik protokol
			Og'ir bosh miya jarohati Serebral koma nozologiyasi bo'yicha milliy klinik protokol
			Talvalasa sindromi. Bolalarda O'RDS kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
23	Dermatovenerologiya va kosmetologiya (6)	Respublika ixtisoslashtirilgan dermatologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi U.Y. Sabirov	Atopik dermatit bo'yicha milliy klinik protokol
			Oyoq panja mikozi kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
			Rozatsea kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
			So'zak kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
			Uyali alopetsiya kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
			Qizil yassi temiratki kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
24	Yuqumli kasalliklar, parazitologiya, epidemiologiya (4)	Respublika ixtisoslashtirilgan epidemiologiya, mikrobiologiya, yuqumli va parazitar kasalliklar	Gripp va O'RVI bo'yicha milliy klinik protokol

		ilmiy-amaliy tibbiyot markazi B.M.Tadjiev	Qirim-kongo kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
			Kuydirgi kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
			Vabo kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
25	Bolalar yuqumli kasalliklari, parazitologiyasi, epidimologiyasi (3)	Respublika ixtisoslashtirilgan epidemiologiya, mikrobiologiya, yuqumli va parazitar kasalliklar ilmiy-amaliy tibbiyot markazi B.M.Tadjiev	O'tkir tonzilit kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
			Bolalar skarlatinasi bo'yicha milliy klinik protokol
			Qizamiq bo'yicha milliy klinik protokol
26	Transplantologiya (1)	Akademik V.Voxidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi S.I. Ismailov	Buyrak transplantatsiyasiga retsiyentlarni tayyorlash va olib borish surunkali buyrak kasalligi, 5-bosqich; transplantatsiya qilingan buyrak mavjudligi
27	Xirurgiya (3)	Akademik V.Voxidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi S.I. Ismailov	Atrioventrikulyar kanal kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
			Diafragmaning qizilo'ngach teshigining churrallari kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
			O'pka exinokokkozi kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
28	Bolalar xirurgiyasi(4)	Respublika bolalar kam invaziv va endoskopik	Tug'ma pilorostenoz kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol

		xirurgiya ilmiy-amaliy markazi B.Z.Abdusamatov	Qizilo'ngach atreziyasi kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
			Tug'ma diafragmal churra kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
			Tug'ma duodenal ichak tutilishi kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
29	Narkologiya(2)	Respublika ixtisoslashtirilgan ruhiy salomatlik ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Z.SH.Ashurov	«Deliriy bilan kechuvchi alkogol abstinentsiya holati (iste'molni to'xtatish sindromi)» nozologiyasi bo'yicha tashxislash va davolash milliy klinik protokol
			Alkogol abstinentsiya sindromi» nozologiyasi bo'yicha milliy klinik protokol
30	Nefrologiya (1)	Respublika ixtisoslashtirilgan nefrologiya va buyrak transplantatsiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi B.T.Daminov	Fokal-segmentar glomeruloskleroz kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
31	Bolalar nefrologiyasi(3)	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi X.A.Akilov	Glomerulyar kasalliklarga gumon qilinganda tashxislash taktikasi
			Streptokokkli infeksiyadan keyingi o'tkir glomerulonefrit
			Membranaproliferativ glomerulonefrit I-tip kasalliklari bo'yicha milliy klinik protokol
32	Oftalmologiya (4)	Respublika ixtisoslashtirilgan ko'z mikroxirurgiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi A.F.Yusupov	To'r parda yirtilishi va kuchishi
			Sklera kasalliklari kasalliklari bo'yicha milliy klinik protokol
			Shishasimon tana kasalliklari bo'yicha milliy klinik protokol
			Shox parda va konyunktiva yot jismi bo'yicha milliy klinik protokol
33	Pulmonologiya (4)		Surunkali bronxit bo'yicha milliy klinik protokol

		Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatrriya va pulmonologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Liverko I.V.	Pnevmoniya bo'yicha milliy klinik protokol
			O'tkir bronxit kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol.
			Sarkoidoz kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
34	Ftiziatriya (2)	Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatrriya va pulmonologiya IATM N.N. Parpieva	Uro-genital sohasi sili bo'yicha milliy klinik protokol
			Suyak-bo'g'im sohasi sili bo'yicha milliy klinik protokol
35	Revmatologiya (4)	Respublika ixtisoslashtirilgan terapiya va tibbiy reabilitatsiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi B.A. Alyavi	Ankilozlovchi spondilit kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
			Reaktiv artrit kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
			Tizimli qizil bo'richa bo'yicha milliy klinik protokol
			Tizimli skelerodermiya bo'yicha milliy klinik protokol
36	Kardiologiya (5)	Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi X. G. Fozilov	Bradikaritmialar kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
			Supraventrikulyar taxikardiya kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
			Miokarditlar bo'yicha milliy klinik protokol
			Perikarditlar bo'yicha milliy klinik protokol
			Endokarditlar bo'yicha milliy klinik protokol

37	Terapiya (gastroenterologiya) (3)	Respublika ixtisoslashtirilgan terapiya va tibbiy reabilitatsiya IATM B.A. Alyavi	Surunkali gastrit bo'yicha milliy klinik protokol
			Kron kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
			Yarali kolit kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
38	Akusherlik va ginekologiya (4)	Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi N.S.Nadirhanova	Tuxumdonlar giperstimulyatsiyasi sindromi milliy klinik protokol
			Homiladorlik davridagi qandli diabet kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
			Bachadon bo'yni saratoninig skriningi, diagnostikasi va intraepitelial servikal neoplaziyasini olib borish taktikasi bo'yicha milliy klinik protokol
			Kesar kesish jarrohlik amaliyoti bo'yicha milliy klinik protokol
39	Neonatalogiya (1)	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi X.A.Akilov	Bronxlar-o'pka displaziya bo'yicha milliy klinik protokol
40	Nevrologiya (1)	Toshkent pediatriya tibbiyot instituti B.T.Daminov	Gravis miasteniyasi kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol
41	Bolalar nevrologiyasi (1)	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi X.A.Akilov	Epilepsiya kasalligi bo'yicha milliy klinik protokol